

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 1 СОН**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 1**

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 1**



Бош муҳаррир:

Холбеков Муҳаммаджон

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Тўхтасинов Илҳом

ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Тахрир хайъати:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Муҳаммаджон

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Тухтасинов Илҳом

к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

Редакционная коллегия:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

Editorial Board:

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. sci., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. sci., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. sci., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. sci., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. sci. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

Адабиётшунослик

1. Rahmonqulova Zarnigor

DISTOPIK EKZISTENSIALIZMNI INGLIZ YOZUVCHISI UILYAM GOLDINGNING "LORD OF THE FLIES" ROMANIDA AKS ETISHI.....6

2. Усманова Севара

ЧЎЛПОН ВА С.РИЧАРДСОН РОМАНЛАРИДА БАДИИЯТ МУАММОЛАРИ.....14

3. Yusupova Dildora

SHOIR SO‘Z AYTGANI KELAR DUNYOGA...(Shoira Halima Xudoyberdiyevaning hayot va ijod yo‘liga chizgilar).....21

4. Қўчқорова Садоқат

ФОЛЬКЛОРДА ЭРТАКНИНГ ЖАНР СИФАТИДАГИ ХУСУСИЯТИ.....28

5. Мажитова Сабоҳат, Ярашов Шариф

АМИР ХУСРАВ ДЕХЛАВИЙ ВА АБДУРАҲМОН ЖОМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА «ДИЛ» (ЮРАК, ҚАЛБ) ТИМСОЛИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК МАЙДОНИ.....35

6. Джалилова Зарнигор

ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ИНСОН СИФАТЛАРИНИНГ ГУЛЛАР ТИМСОЛИДА ИФОДАЛАНИШИ.....42

Лингводидактика

7. Khamzaev Sobir, Gilyazetdinov Eldar

THE PRINCIPLES OF SPEAKING SKILLS' FORMATION AMONG STUDENTS OF LINGUISTIC UNIVERSITIES.....48

Тилшунослик

8. Boygucheva Lola

THE ROLE OF DISCOURSE ANALYSIS IN MODERN LINGUISTIC THEORY.....54

9. Кобилова Азиза

ШИФОБАХШ ЎСИМЛИКЛАР ЎРНИДА ИШЛАТИЛАДИГАН ПЕРИФРАЗЛАР ТАҲЛИЛИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....59

10. Mamanazarova Gulhayo, Paluanova Halifa

ISSUES ON OIL AND GAS TERMINOLOGY IN LINGUISTICS.....65

11. Melikova Elnora, Abdullayeva Nargiza

PRIMARY AND SECONDARY PREDICATION.....71

12. Saidova Farida

O‘ZBEK TILI LEKSIK SINONIMLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI.....77

13. Turniyazov Behzod

FAKTIVLIK ASOSIDAGI KAUZATSIYA.....83

14. Гафуров Бахтиёр АНАЛИЗ ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКЦЕНТНЫХ ФОНОВАРИАНТОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	91
15. Ибаев Анвар КОМПАРАТИВ СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАР ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ЎРГАНИЛИШ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА.....	97
16. Исмаилов Тургун ПРЕЗИДЕНТ ДИСКУРСИДА HOMELAND КОНЦЕПТИНИНГ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ОРҚАЛИ ТАСАВВУР ЭТИЛИШИ (FREEDOM, LIBERTY ҚАДРИЯТИ МИСОЛИДА).....	103
17. Камолиддинова Вазира ОКСЮМОРОН ВА УНИНГ УСЛУБИЙ - СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	111
18. Нигматова Лолахон ЎЗБЕК ТИЛИ МАХСУС КОРПУСЛАРИ – ТИЛ ВА МАДАНИЯТ МУШТАРАКЛИГИНИ ЎРГАНИШ ВОСИТАСИ.....	116
19. Сабирова Ёъзоза ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТЛАРИДА ЎЗЛАШМА ЮРИДИК ТЕРМИНЛАР ТАЛҚИНИ.....	121
20. Сулаймонова Нигора ЗАМАХШАРИЙ ГЎЗАЛ НУТҚ ВА САБР ОДОБИ ҲАҚИДА.....	130
21. Тўева Зулфия, Юлдашева Дилором БАЁН ВА УНИНГ ТУРЛАРИ ҲАҚИДА.....	137
22. Xolova Muyassar BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA).....	146
23. Abdullayeva Oqila Xolmo'minovna O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISH BOSQICHLARI VA MUAMMOLI JIHATLARI....	153
24. Abdunazarova Zarina Islomovna THE FORMATION OF SPEECH COMPETENCE.....	159
25. Nilufar Abduraxmonova O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISHDA LINGVISTIK ANNOTATSIYALASH TAMOIYILLARI.....	164
26. Shamuradova Naima O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING QIYOSIY O'RGANILISHI HAQIDA (ASOSIY QISMLARINI QO'LLASH).....	171
27. Яхёева Гулнора Бахтиёровна ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.....	175

28. Irgasheva Umida INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYALAR AHAMIYATI.....	179
29. Jumaniyozova Nuriya Axmedovna YURIDIK DISKURS LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA.....	184
30. Khayitova Feruza Abdikhalikovna THE PRACTICAL ANALYSIS OF TOPONYMS IN GREAT BRITAIN BASED ON THE STORY OF A. CONAN DOYLE "THE HOUND OF THE BASKERVILLES".....	188
31. Z. Masodiqova, Sh. Xatamqulova O'ZBEK VA NEMIS MAQOLLARINI QIYOSHLASH.....	193
32. Teshaboyev Dilmurod Rahmadjonovich, Axmadjonova Mohinur Bahodirovna SON SO'Z TURKUMINING BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDA IFODALANGAN SHAKLLARINI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH.....	193
33. Maxmurova Mavjuda Halimovna METAFORALAR NUTQ SHAKLI SIFATIDA.....	204
34. Nazarov Rustam Irkinovich THE IMPORTANCE OF PAIR WORK AND GROUP WORK ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH IN TECHNICAL UNIVERSITIES.....	210
35. Saidbekova Raykhona Rustambekovna, Ruzmatova Dilnoza Ramatjonova FAMILY PERSPECTIVES IN THE NOVEL "AND THE MOUNTAIN ENCHOED" BY KHALED HUSSEINI.....	217
36. Алижон Раҳматович Қосимов, Хумора Муҳаммадиса қизи Иминова ТИЛНИНГ БИОПСИХОСОЦИАЛ ОНТОЛОГИК МАҚОМИ МУАММОЛАРИ.....	222


СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Z. Masodiqova

Sh. Xatamqulova

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti
chet tillar kafedrası katta o'qituvchisi.

O'ZBEK VA NEMIS MAQOLLARINI QIYOSHLASH

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-1-31>

ANOTATSIYA

Mazkur maqola yozish davomida maqollarning yaratilish tarixi, ularga bo'lgan munosabat, ularning o'rganilishi, o'ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishish bilan birga, juda ko'p nemis va o'zbek maqollarini ko'zdan kechirdim. O'zbek va nemis xalqlarining donishmandligi, zukkoligiga yana bir bor amin bo'ldim. Ular hajmi jihatidan qisqa va cheklangan, mazmunan serko'lam, shaklan she'riy yoki nasriy yozilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy, maqol, sheva, o'zbek maqollari, nemis maqollari, alfavit tartibi, tematik tasnif.

З.Масодикова

Ш. Хатамкулова

старшие преподаватели кафедры иностранных языков
Кокандский Государственный Педагогический Институт

СПРАВНЕНИЕ УЗБЕКСКИХ И НЕМЕЦКИХ ПОСЛОВИЦ

АНОТАЦИЯ

Во время написания статьи я ознакомился с историей создания статей, их отношением к ним, их изучением, их особенностями, а также просмотрел многие немецкие и узбекские статьи. Еще раз убеждаюсь в мудрости и смекалке узбекского и немецкого народов. Они короткие и ограниченные по размеру, богатые по содержанию, поэтические или прозаические по форме.

Ключевые слова: духовный, пословица, диалект, узбекские пословицы, немецкие пословицы, алфавитный порядок, тематическая классификация.

Z. Masodikova

Sh. Xatamkulova

are head teachers of the foreign languages
department of Kokand State Pedagogical Institute

COMPARISON OF UZBEK AND GERMAN PROVERBS

ANNOTATION

During the writing of this article, I got acquainted with the history of the creation of proverbs, their attitude to them, their study, their peculiarities, as well as reviewed many German and Uzbek proverbs. I am once again convinced of the wisdom and ingenuity of the Uzbek and German people. They are short and limited in size, the content is rich, the form is poetic or prose.

Key words: Spiritual, proverb, dialect, uzbek proverbs, german proverbs, alphabetical order, thematic classification.

Kirish. Xalq og'zaki ijodi xalqning buyuk tarixini, urf-odatlarini-yu an'analarini o'zida saqlab keladigan bebaho ma'naviy merosdir. Uni asrab-avaylash, avlodlardan avlodlarga yetkazish xalqning o'z tarixi va buyuk ajdodlariga bo'lgan cheksiz hurmatning, e'zozning ifodasidir. Dastlab, 1990 yilda, hali mustaqillik qo'lga kiritilmasdan avval tasdiqlangan Navro'z bayrami umumxalq tantanasi darajasida nishonlandi. Keyinchalik —Alpomish dostonining 1000 yilligi, dastlab mamlakatimizda, so'ng jahon miqyosida nishonlandi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008-yil —Ma'naviyat nashriyoti tomonidan e'lon qilingan —Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch kitobida shunday deyiladi: —Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuvlar va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asrlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bu e'tibor va yuksak baho ma'naviy merosimizga, ajdodlar merosiga bo'lgan katta hurmatning ifodachisidir. (Абдулла Авлоний ,туркий гулистон ехуд ахлоқ, Т: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2004.) Ularni qiyoslash tamoyili asosida o'rganish usuli o'sha milliy o'ziga xoslikning tarixiy asoslarini chuqur aniqlash imkonini beradi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi. O'zbek va nemis maqollarini o'zaro qiyoslashda ikki jihatga e'tibor qaratiladi:

- o'zbek va nemis maqollarining tematik qiyosi. Bunda manba sifatida olingan maqollar mavzu jihatidan guruhlariga ajratiladi. Ular orasidagi har ikkala xalq maqollarida eng ko'p uchraydigan mavzular va aksincha, kam uchraydigan mavzularni aniqlash va uning sababini izohlash; (Гаппиев Б. М. Туркменские пословицы и поговорки – А, 1961) - o'zbek va nemis xalq maqollarining o'zaro muqobillari, ulardagi o'ziga xosliklarni aniqlash; - o'zbek va nemis maqollari badiiyatini qiyoslash. Bunda esa har ikkala xalq maqollarida uchraydigan badiiy vositalar (o'xshatish, mubolag'a, majoz, jonlantirish, ramz) o'zaro qiyoslanadi. M.D.Stepanova hamda I.I Chernishyovalar ham boshqa tilshunos olimlar fikriga qo'shilgan holda shunday yozadilar: “Maqollar xalq og'zaki ijodida hosil bo'ladi. Ularning uyushqoq shakli, ya'ni ibratli ma'nosi tufayli hamda ijodkorlar tomonidan shakl berilishi sababli ular kichik poeziyaning bir qismiga o'xshab ketadi” deb ta'kidlaydilar. O'zbek tilida maqollar turli davrlarda turli nomlar bilan atalib kelingan. Mahmud Koshg'ariy —Devoni lug'ati turk da —saw so'zning bir necha ma'nosini beradi. Bular orasida —otalar so'zi ni anglatuvchi —saw so'zi aynan maqol janriga to'g'ri keladi. —Devonda —saw ning 260 dan ortiq namunalarini berilgan. O'zbek adabiyotining mumtoz davriga kelib esa maqol ma'nosida —masal atamasining keng istemolda bo'lganligini ko'rish mumkin. Mumtoz adabiyotdagi she'riy asarlarda maqol qo'llash san'atining “irsoli masal” deb atalishi ham bejiz emas.

Yetti jon og'zimakim, chiqmas uyidin ul hur,

Chiqmag'on jondin umid-ushbu masaldur mashhur.

Keying davrlarda esa maqol, shuningdek, naql, hikmat, o'git, tanbeh, donolar so'zi, mashoyihlar so'zi, zarbulmasal, maqol kabi nomlar bilan atalgan. Bugungi kundagi maqol atamasi XX asrdan boshlab o'zbek paremiologiyasidagi turg'un atamaga aylandi va u maqol janriga eng munosib nom sifatida qo'llanilmoqda. Nemis tilida maqolga nisbatan qo'llanadigan —sprichwort termini, ushbu terminning kelib chiqish tarixi va u anglatgan ma'noni nemis olimi F.Zayler chuqur o'rgangan. U o'zining keng hajmdagi asari bo'lmish “Ne'mischa maqollar ta'limoti” asarini frazeologiya muammolariga bag'ishlaydi. U maqol so'zining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “Maqol o'rta

nemis tilida ham “Sprichwort” bo’lgan va u “men gapiraman” ma’nosini anglatgan. Har bir maqol haqiqiy xalq so’zi bo’lishi kerak. Ko’pgina maqollar yagona makonda, xalq qatlamlarida xalqchil bo’lib, keyinchalik tez-tez shevalarda ko’rina boshlaganlar. (Herbert Weiderroth Worterbuck Leipziger : 1961.9. Horst und Annelies Beyer 1889.) Sh. Imyaminova. Sh. Kamolovlar nemis tilidagi maqollarning kelib chiqishida asosan qadimgi german mifologiyasi o’z ta’sirini o’tkazganligini, bundan tashqari xalqning din haqidagi qarashlari, ularning dostonlari, afsonalari asosida ham maqollar shakllana borganligini, shuningdek, qadimgi german urf-odatlarini maqollarning gullab-yashlashiga o’z ta’sirini o’tkazganligini ta’kidlab o’tadilar. Xuddi o’zbek adabiyoti singari nemis yozma adabiyotida ham yozuvchi, shoirlar nemis maqollaridan foydalanishlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, buyuk nemis yozuvchisi Geotening —Faust asarida shunday misra keladi: *Grau, teurer Freund, ist alle Theorie, Und Grun des Lebens goldner Baum* (J. W. Goethe, Faust, S. 122)

E. Vohidov tarjimasini:

Nazariya - quruq og’ochdir,

Ammo yashnar hayot daraxti. (Faust, b. 60)

Yuqoridagi qanotli so’z o’zbek tiliga Posho Ali Usmon tomonidan shunday tarjima qilingan:

Nazariya, do’stim, quruq, yo’q gashti,

Yashildir, hayotning oltin daraxti

Bunday misollarni yana ko’plab kuzatish mumkin. Ularda nemis xalqining o’ziga xos fikrlashi, ibratli hayot xulosalarini kuzatishimiz mumkin. O’rni kelganda shuni ham aytib o’tish kerakki, maqolning juda keskinlik bilan emas sekinlik bilan yaratilish va o’lish xususiyati nisbiy xarakterga ega. Chunki maqollarning o’z mazmunini, ko’pincha, o’z shaklini saqlab qolinishi ham jamiyat strukturasi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning turg’un yoki noturg’unlik xarakteri bilan chambarchas bog’langandir. Ijtimoiy hayotning o’zgarishi bilan bog’liq holda maqolda ifodalangan mazmun o’zgarib boradi: yo torayadi, yo kengayadi, boshqacha mazmun kasb etadi. Bu narsa o’z navbatida maqolning ikkinchi bir xususiyatini yuzaga keltirib chiqaradi. Bu xususiyat maqolning jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan juda va bevosita bog’lanishga ega ekanligida namoyon bo’ladi. Bu narsa, birinchidan, maqollarda turli ijtimoiy munosabatlarning xalqning axloqiy normalari hamda e’tiqodlarining, maishiy turmushi va mehnati, sevgisi va nafrati, ozod hayot uchun intilishlarining obyektiv, ixcham va lo’nda aks etganligida ko’rinadi. Ikkinchidan, xalq maqollari hayot voqeligini butun ikir-chikirlari bilan oddiygina qayd etib qolmasdan, balki ularni chuqur tipiklashtirgan holda ifodalaydi. Demak, maqolda hammavaqt u yoki bu davr uchun tipik bo’lgan voqeliklar haqidagi xulosalar ifodalanadi, xolos.

Uchinchidan, maqollar xalqning ko’p asrlik mehnat jarayonida to’plangan tajribalarini umumlashtirib, ularni ixcham shaklda xulosalab beradi. To’rtinchidan, maqollar xalqning ko’p asrlik tajribalarini faqat ifodalabgina qolmay, balki ularni izohlab, sharhlab ham beradi. Maqollar uchun mazmunan kenglik xosdir. Bu xususiyat esa maqolda o’z-o’zidan katta semantik ko’chmalar imkonini beradiki, natijada birgina maqolning o’zini turli vaziyatda turlicha mazmunda qo’llash mumkin. Mana shu xususiyat maqolga, ko’p hollarda, xususiyati barhayotlik bag’ishlaydi. Maqollar qanday zamon yoki makonda yaratilmasin kishilarni doim ezgulik, yaxshilikka undab, o’zining hayotiy xulosalari bilan kishilarga suyanch, tayanch bo’lib qolaveradi.

Mazkur fasldagi qo’yilgan masalani o’rganish natijasida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

I. Maqollar dastlab o’tkir kuzatuvchanlik va o’z fikrini bir nechagina so’z bilan ravshan ifodalay olish qobiliyatiga ega bo’lgan bir kishi tomonidan to’qib chiqarilgan, o’rinli ifodalangan bu fikr keyinchalik ko’pchilik tomonidan qabul qilinishi, qo’llanishi oqibatida yuzaga kelgan. So’ng asta-sekin og’izdan og’izga o’tib, har xil shaklga, ko’rinishga otgan. Biroq bu nashrlarning ayrimlarida maqollarni berishda jiddiy nuqsonlar ham ko’zga tashlanaganini ham qayd etib o’tish lozim. Maqolada mazkur to’planning kamchilik va nuqsonlari haqida so’z boradi. Aslida esa bu maqol quyidagicha: —Igna o’g’irlagandan sigir yo’qotgan odam gumonsirar. Bu maqolada keltirib o’tilgan kamchiliklar muallif tomonidan keyingi nashrlarda tuzatilsa va maqol to’plamlarini nashrga tayyorlovchilar ushbu jihatlarga e’tibor qaratsa maqsadga muvofiq bo’lard. Xuddi o’zbek maqollari singari nemis maqollarining o’rganilish ishlari ham ancha oldin boshlangan. Xususan, nemis maqollarini olim F. Zayler chuqur o’rgangan. U o’zining keng hajmdagi asari bo’lmish

—Nemischa maqollar ta‘limoti asarini frazeologiya muammolariga bag‘ishlaydi. U maqol so‘zining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: —Maqol o‘rta nemis tilida ham —Sprichwort bo‘lgan va u —men gapiraman ma‘nosini anglatgan. Har bir maqol haqiqiy xalq so‘zi bo‘lishi kerak. Ko‘pgina maqollar yagona makonda, xalq qatlamlarida xalqchil bo‘lib, keyinchalik tez-tez shevalarda ko‘rina boshlaganlar.

Maqollarni til sturukturasi jihatidan o‘rganish, maqol to‘plamlari tuzish Germaniyada XVII asrda boshlandi. Xususan, XVII asrda asosan Germaniyada nemischa-italyancha lug‘atlar tuzildi. 1648-yilda Augsburgda Johann Guntzel tomonidan —Hauptschüssel der Teutschen und Italiänischen Sprache lugati chop etildi. Lug‘atda so‘z va so‘z birikmalari, frazeologik birliklar berilgan. 1700-1702-yillarda Nyurenbergda Matias Kramer tomonidan tuzilgan ikki qismdan iborat —Herlich Grosses Teutsch-Italiänisches Dicitonarium oder Wort-und Red-Arten-Schatz der unvergleichlichen Hoch-teutschen Grund und Haupt-Sprache asarida ham frazeologiya sohasida izlanishlar haqida so‘z yuritiladi. (Eshonqulov J. Maqollar egasiz emas “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati 2014 .4 aprel .)

1. **Alfavit tartibi.** Ushbu prinsipga ko‘ra, mavjud material maqol to‘plamida alfavit tartibiga solinadi. Bunday tasnifning afzalligi shundaki, u maqollardan foydalanuvchilarga to‘plamdagi maqolni tezroq topishga yordam beradi. Mazkur tasnifning kamchiligi shundaki, unda materialning tematik mansubiyati, tuzulishi, poetik tabiati va boshqa xossalari haqida ma‘lumot berilmaydi. Alfavit tartibida tasnif etilgan maqol to‘plamlari so‘ngida kerakli ko‘rsatgichlar bilan ta‘minlangandagina mukammallik kasb etadi.

2. **Tematik tasnif.** Tasnifning bu turi avvalgisidan bir necha daraja murakkab va murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki bunda mavjud material muayyan tematik guruhlarga ajratiladi, har bir tematikadagi material esa o‘z ichida alfavit tartibida beriladi. Endi esa biz o‘zbek va nemis xalq maqollarida e‘tiborga olingan tematik jihatlarni o‘zaro qiyoslab chiqsak. Avvalo, o‘zbek va nemis maqollarining tematik jihatdan solishtiradigan bo‘lsak, ularda umuminsoniy qadriyatlar, fazilatlar va odatlar, falsafiy tushunchalar har ikki xalq maqollarining asosiy mavzusini belgilaydi. Masalan:

a) “Mein Nest ist das beste” (So‘zma-so‘z: Mening uyim eng yaxshisi), “Mein Haus ist mein Burg ” (So‘zma-so‘z: Mening uyim-mening qal‘am)l nemis maqoli va unga muqobil o‘zbek maqoli “O‘z uying-o‘lan to‘shaging” da maqolida vatan mavzusi;

b) “Wo Friede, da Glück” (Qayerda tinchlik bo‘lsa, o‘sha yerda baxt bor) nemis maqoli va unga muqobil o‘zbek maqoli “Tinchlik baxt keltirar” da tinchlik mavzusi,

c) “Zeit ist Gold” (Vaqt bu pul), “Heute ist besser als zehn Morgen” (Bugun o‘nta ertadan yaxshiroq), “Früh auf, gut Lauf” (Erta turganning yo‘li ochiq) kabi nemis maqollar va unga muqobil “Vaqtin ketdi - naqding ketdi” , “Erta turgan ish bitirar, kech turgan ko‘p turtinar” maqollarida vaqtni, umrni qadriga yetish;

Ko‘rinib turganidek, maqollarning mavzu ko‘lami juda keng. Ular qamrab olmagan jabha yo‘q. Bu jihatdan har ikki xalq maqollari bir-biridan qolishmaydi. Bu holatni biz maqollar muqobilida yana kuzatamiz. Dunyodagi barcha xalqlar o‘g‘zaki ijodida maqollarchalik shakli va ifoda etayotgan, bildirayotgan mazmunichalik bir-biriga juda yaqin, hatto aynan bir xil bo‘lgan janr yo‘q. Bu holatni biz faqat maqollarda ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizning isboti sifatida o‘zbek va nemis maqollaridagi o‘xshashliklarni ko‘rib chiqsak.

Nemischa “Der Ton macht Musik” (Tovushlar musiqa yaratadi) maqolida tovushlar birgalikda birikgandagina bir ish(musiqa) chiqara olishi ma‘nosi hayotiy o‘xshatma orqali berilayotgan bo‘lib, o‘zbekcha “Kuch birlikda” yoki ” Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” maqoliga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, yana bir nemischa —Begossene Hunde furchten das Wesser” (Cho‘kkan kuchuk suvdan qo‘rqar) maqoli o‘zbekcha “Og‘zi kuygan qatqni ham puflab ichar” maqoliga, nemischa “Der Appetit kommt beim Essen ” (Ishtaha ovqat paytida keladi) maqoli o‘zbekcha “Har ishning o‘z vaqti bor” , nemischa “Löwen fangen keine Mäuse” (Sherlar sichqon ovlamaydi) maqoli o‘zbekcha “Teng tengi bilan tezak qopi bilan ” maqoliga, “Den Esel erkent man an den Ohren und an den Worten der Toren” (Eshakni qulog‘idan taniydilar, ahmoqni –

so'zidan) maqoli o'zbekcha "Sen menga do'stingning kimligini ayt, men senga sening kimligingni aytaman" maqoli anglatgan ma'noni ifodalab, unga muqobil (ekvivalent) bo'la oladi. Bu qatorni yana uzoq davom ettirish mumkin. Yana shuningdek, o'zining janr xususiyatlariga ko'ra xalqaro janr sanalgan maqollarning o'zbek maqollariga muqobil bo'lgan variantlari boshqa xalqlar ijodida ham uchraydi. Masalan, o'zbek va boshqa xalqlar maqollaridagi o'zaro mushtaraklik va farqli jihatlarni tahlil qilish orqali fikrimizni isbot qilsak.

Rus maqollaridan biri: "Insonni kiyimiga qarab kutib oladilar, bilimiga qarab hurmat qiladilar" yoki mo'g'ullardagi "Insonni tashi bilan kutib olinadi, ichi bilan kuzatiladi" maqoli o'zbek xalq maqollaridagi: "Kiyimiga qarab kutib oladilar, maqoliga to'g'ri keladi. (Nazarov P. Nemischa-O'zbekcha maqol va matallar –2001.)


Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдулла Авлоний, Туркий гулистон ёхуд ахлоқ, Т.: О'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2004.
2. Араб мақоллари. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Сиддиқов Н.) – Т.: Сано стандарт, 2011.
3. Абдуллаев Х. Д. Халқ мақолларининг —Қутадғу билиг потикасидаги ўрни ва бадиий-эстетик функциялари – филол.фан. ном. Илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2005.
4. Гарриев Б. М. Туркменские пословицы и поговорки. – А., 1961.
5. Herbert Wiederroth. Wörterbuch. – Leipzig: 1961.9. Horst und Annelies Beyer. Sprichwörterlexikon – М.: Высшая школа, 1989.
6. Deutsches Sprichwörter-Lexikon. Herausgegeben von Karl Friedrich Wilhelm Wander. Wissenschaftliche Buchgesellschaft Darmstadt, 1964.
7. Eshonqulov J. Maqollar egasiz emas// O'zbekiston adabiyoti va san'ati.2014 yil 4- aprel, № 14.
8. Erkin Vohidov. Faust, 1-2-kitob,Т., 1972—1975.
9. Ismoilov Y., Karimov Sh. Usbekisch-deutsches Wörterbuch. – Т.: Nihol, 2011.
10. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Л.: Наука,1979.
11. Lexikon sprachwissenschaftlicher Termini (Hrsg. R. Conrad) – 1 Aufl. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. – S.228
12. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Т.:MUMTOZ SO'Z, 2010.
13. Мадаев О. Собитова Т. Халқ оғзаки поетик ижоди. – Т.:Шарқ, 2001.
14. Марқаев К., Маҳмудова Н., Хамраев Д., Sprichwörter Пословицы Мақоллар. – Т.: Meriyus, 2013.
15. Маҳмудова Н. Шарипова Н. Sprichwörter 101 Proverbs Пословицы Мақоллар . – Қ.: Нафас, 2008.
16. Nazarov P., Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar. – S.: 2001.
17. Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar lug'ati. Tuzuvchilar: Sh Imyaminova. Sh.Kamolova. – Т.:MUMTOZ SO'Z, 2013.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Teshaboyev Dilmurod Rahmadjonovich,
Farg'ona davlat universiteti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dteshaboyevphd@gmail.com.
Axmadjonova Mohinur Bahodirovna,
Farg'ona davlat universiteti magistranti,
zohiddoctor1993@gmail.com

SON SO'Z TURKUMINING BOSHLANG'ICH SINIF DARSLIKLARIDA IFODALANGAN SHAKLLARINI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-1-32>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darsliklarida qo'llangan son so'z turkumining ifodalanishi, son so'z turkumi haqidagi bilimlarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish va ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich sinf darsliklarida ifodalangan miqdor bildiruvchi so'zlar haqidagi bilimlarni o'quvchilarga axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yetkazib berish, son so'z turkumi shakllarini AKT orqali tushuntirish, shuningdek, Power Point dasturidan samarali foydalana olish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: son so'z turkumi, miqdor ifodalovchi so'zlar, dasturiy vositalar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, ko'nikma, malaka.

Тешабоев Дилмурод Рахмаджонович,
Ферганский Государственный Университет,
Доктор философских наук, старший преподаватель.
Ахмаджонова Мохинур Баходировна,
Ферганский Государственный Университет Магистр

ОБЪЯСНЯТЬ ФОРМЫ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В УЧЕБНИКАХ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ПОМОЩЬЮ ИКТ

АННОТАЦИЯ

В этой статье выражение числовой фразы, используемой в учебниках начальной школы, преподавание знаний о числовой группе слов учащимся начальной школы и формирование навыков, выражение количества, выраженное в учебниках начальной школы. студенты с информацией о них с помощью информационных технологий, чтобы объяснить формы числительных с помощью ИКТ, а также эффективное использование Power Point.

Ключевые слова: числовая лексика, количественные слова, программное обеспечение, информационные и коммуникационные технологии, навыки, компетенции.

Teshaboyev Dilmurod Rahmadjonovich,
Fergana State University,
Doctor of Philosophy (Ph.D.) in Philology, Senior Lecturer
Axmadjonova Mohinur Bahodirovna,
AFergana State University master,

EXPLAINING THE FORMS OF THE NUMBER CATEGORY EXPRESSED IN PRIMARY EDUCATION USING ICT

ANNOTATION

In this article, the expression of the number phrase used in primary school textbooks, the teaching of knowledge about the number word group to primary school students and the formation of skills, the expression of the quantity expressed in primary school textbooks. It is planned to provide students with information about them using information technology, to explain the forms of numerals through ICT, as well as to use Power Point effectively.

Keywords: number vocabulary, quantitative words, software, information and communication technologies, skills, competencies.

Kirish. Ma'lumki, yosh avlodni tarbiyalash va ularga har tomonlama yetuk bilim berish alohida e'tibor talab qiladigan jarayondir. Ta'lim berish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun turli xil interfaol usullardan foydalanib dars olib borish juda samarali usul hisoblanadi. Yangi mavzuni tushuntirish, o'tilgan darslarni takrorlashda kompyuter texnologiyalari va multimedia vositalari eng muhim omillaridan biridir.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga zamonaviy bilim berish va ularda amaliy ko'nikmani rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyos.

O'zbek tilshunosligida morfologik sathning birligi hisoblangan son so'z turkumiga doir ilmiy ishlar ustuvor bo'lib, ularda miqdor ifodalovchi birliklarning shakily va mazmuniy tuzulishi, miqdor ifodalovchi birliklarni shakllantiruvchi vositalar, ularning shakily, mazmuniy ko'rinishiga doir muammolarni tadqiq qilish, shuningdek, boshlang'ich sinflarda son so'z turkumining lisoniy xususiyatlarini tavsiflash omillari dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda miqdor ifodalovchi son so'z turkumini o'qitish va o'rganishda axborot-kommunikatsion texnologilardan (AKT) foydalanib, o'quv-metodik adabiyotlar tizimini yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash tamoyillarini ishlab chiqish va uning asosida dars jarayonini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O'zbek tilshunosligida miqdor bildiruvchi son kategoriyasiga, xususan, uning lingvistik masalalariga bag'ishlangan bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Son kategoriyasi dastlab professor A.G'ulomov tomonidan tadqiq qilingan [1]. Sh. Rahmatullayev, A.Xojiyev, I.Rasulov kabi tilshunos olimlar mazkur kategoriyaning o'ziga xos xususiyatlarini professor A.G'ulomov qarashlariga tayangan holda batafsil yoritib berganlar [2].

Asosiy qism. Boshlang'ich ta'limda matematik predmetlaridan AKT asosida yaratilayotgan ko'rgazmali resurslar O'zbekistonda birinchi marta yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayoniga qo'llanilib kelinmoqda. Matematik predmetlar bo'yicha yaratiladigan ko'rgazmali resurslar asosida boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. O'quv jarayonida ko'rgazmali resurslarni axborot texnologiyalari orqali yaratish boshqa mavjud ko'rgazmalardan tubdan farq qiladi. Birinchi sinf o'quvchilariga so'z turkumlari doirasiga kiruvchi so'zlar morfologik tarzda tasnif qilish yo'li bilan o'rgatiladi, ammo so'zlar atama sifatida o'rgatilmaydi. O'quvchilar har bir so'zlarning qaysi so'z turkumiga kirishini uning so'roqlari yordamida ajratib oladilar. Masalan, shaxs, narsa, o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi ot so'z turkumiga kim? va nima?, belgi ifodalovchi sifat so'z turkumiga qanday? va qanaqa?, miqdor bildiruvchi son so'z turkumiga qancha? va necha?, shaxs va narsalarning harakatini bildiruvchi fe'l so'z turkumiga esa nima qildi?, nima qilyapti? va nima qiladi? so'roqlarini berish bilan bu so'z turkumlarini ajratib farqlab oladilar.

Hozirda har bir soha vakillari uchun kompyuter texnologiyasidan oz bo'lsa-da, bilimga ega bo'lish talab etilmoqda. Bu jabhadan o'qituvchilar ham chetda qolayotgani yo'q. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim berish jarayonida noodatiy shakllardan foydalanib, o'tilayotgan yoki o'tilgan darsni o'quvchilarga tushuntira olishi lozimdir. Buning uchun esa, albatta, kompyuter texnologiyalarni bilish asqotadi. Bunda "Macromedia Flash", "GIF Animation", "Microsoft Front Page", "Abobe Fotoshop", "3D Max", "Microsoft Power Point" kabi dasturiy vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu kabi dasturiy vositalar yordamida rangli, harakatli, ovozli tasvirlar yaratish mumkin. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining berilgan mavzuni oson, sodda ko'rinishda, tez o'zlashtirishlariga yordam beradi. Yuqoridagi vositalar bir-biridan murakkab hisoblanib, asosan ko'p foydalanish mumkin bo'lgan dastur bu Microsoft Power Point darsturi hisoblanadi.

Multimediali ko'rgazmali qurollarning tarkibiy qismi animatsiyalardan, turli xil qiziqarli harakatlardan tashkil topgan bo'ladi. Quyida keltiriladigan Microsoft Power Point dasturi yordamida tayyorlangan ko'rgazmali qurollar ham yuqorida qayd etilganidek animatsiyalar va turli xil qiziqarli harakatlardan tashkil topgan.

Ushbu multimediyali ko'rgazmali qurollarning afzallik tomonlaridan biri mavzularga tegishli animatsiyalar gipermurojaatlar yordamida foydalanish imkoniyatini beradi. Animatsiyalar harakat va ovoz bilan boyitilgani sababli dars mavzusini kengroq va tushunarliroq tarzda yoritib bera oladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir mavzuga oid multimediyali ko'rgazmali qurollarning animatsiyalarini tayyorlash o'qituvchidan o'z ustida mukammal faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. O'qituvchidan animatsiyalarni yaratish jarayonida ularni kerakli joyga o'rnatish, harakat, ovoz, qaytish va to'xtatish kabi tugmalarni aniq va kerakli joylarda ishlata olish kabi jarayonlarni bilish muhim sanaladi.

O'quvchilarning bilimini oshirishda o'quv vositalarining o'rni juda katta. Shuning uchun ham o'qitishning asosiy vositalari, ya'ni dastur va darsliklarni yaratishda muallif o'quvchilarning qiziqishlari va yosh xususiyatlarini hisobga olishi talab etiladi, aks holda o'quvchining fanga qiziqishlari so'nib, ularning bilish faolligi pasayib boradi. Dars jarayonida AKT vositalaridan unumli foydalanish orqali o'quvchilar faolligiga erishish mumkin. Ma'lumki bunday dars jarayonlari uchun dasturiy ta'minotning ahamiyati kattadir.

Son so'z turkumiga oid so'zlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining har bir darsligiga kiritilgan. Son so'z turkumi boshlang'ich sinf darsliklarining birinchi va ikkinchi sinflarda "Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar" nomi bilan o'rganiladi. Son so'z turkumini o'rgatish uchun kompyuter texnologiyalaridan ham foydalanish mumkin. Bilamizki, birinchi sinfga kelgan o'quvchilarning deyarli barchasi sanash ko'kinmasiga ega bo'ladi, lekin ular aytayotgan sonlarining ko'rinishi va yozilishi qanday ko'rinishga ega ekanligini bilishmaydi. Shuning uchun ham 1-sinf matematika darsligining boshlanish qismida turli xil narsalarning rasmi keltirilgan va rasmdagi narsalarning sonini sanash talab etiladi. Ya'ni o'quvchilar faqat narsalarni sanashni o'rganishadi. Sanash ko'nikmasi barcha o'quvchilarda shakllangach, sonlarning ko'rinishi haqida ma'lumot olishni boshlashadi. Bu ko'nikmani egallashlari uchun ularga quyidagi Microsoft Power Point dastur vositasi yordamida tayyorlangan ko'rgazmalar yordam beradi.



Yuqorida keltirilgan ko'rgazma bilan bolaning ongida sonlarni shakllantirish mumkin. Ya'ni, "Rasmda nechta ayiq bor? va Rasmda nechta vertolyot bor?" savollari orqali o'quvchilar ayiq va vertolyotni sanashadi, nechta ekanligini aniqlashib aytishadi. So'ng ekranda savolning javobi paydo bo'ladi. Javobi ko'ringach, "Balli" so'zi va "qarsak" harakati ham paydo bo'ladi.



Ushbu ko'rgazmada o'quvchilar sanash malakasini va sonlarning ko'rinishi qanday bo'lishini bilib oladilar. Taqdimotning sharti: narsalarni sanash va to'g'ri sonning ustiga bosishdir. Agar javob to'g'ri bo'lsa son o'z joyini egallaydi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa son yo'qoladi va "O'ylab ko'ring" so'zi paydo bo'ladi.

Bu ko'rgazmaning soddaroq ko'rinishi bo'lib, bolalarda son haqida tushuncha paydo bo'lgach ko'rgazmalarning murakkabroq ko'rinishiga o'tish mumkin.

Har bir ko'rgazmadan foydalanish darsning unumdorligini oshirish bilan birga o'quvchilarning ongida elektron resurslar haqida ham ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Chunki o'qituvchi o'zi tayyorlab kelgan multimediyali ko'rgazmali qurollarni qanday qilib bajarish lozimligini oquvchilarga tushintirish jarayonida uni klaviaturaning yoki dasturning qaysi sohasi orqali bajarish mumkinligini ha aytib o'tadi. Shu orqali o'quvchilarda texnika haqida tushuncha paydo qilish mumkin.

Masalan, quyida keltirilgan ko'rgazma rasmiga nazar tashlasak:



Ushbu ko'rgazmaning nomi "Yalmog'iz kampirga yordam bering" deb nomlanadi. O'yinning sharti esa, "Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan sonni qo'ying". Bundan tashqari o'yinning o'z qoidalari ham mavjud bo'lib, o'yin qoidalar to'rtta:

1. Raqamlar ketma-ketligini o'rgan.
2. To'g'ri sonni tanla.
3. Agar noto'g'ri tanlasang, son yo'qoladi.

4. To'g'ri sonni tanlasang, son o'z joyiga tushadi.

Ekranida ushbu o'yin paydo bo'lgach, o'qituvchi o'yin sharti va qoidalari bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Sonlar ketma-ketligi keltirilgan slaydda qaysi son yo'qligini topish talab etiladi. Agar o'quvchi sonning ketma-ketligini xato aytsa, tanlangan son yo'qolib qoladi. Agar o'quvchi sonning ketma-ketligini to'g'ri topsa, son o'z joyini egallaydi va qarsak ovozi yangraydi. Bu o'yin orqali sonlarning ketma-ketligini o'rganish ko'nikmasi shakllantiriladi. Yuqorida keltirilgan ko'rgazmalar o'quvchida faqat sonning ko'rinishi va shakli haqida tushuncha yuzaga keltiradi xolos. Bundan tashqari o'quvchilar aytayotgan va ko'rayotgan sonlarining yozilishini ham bilishlari talab etiladi.

Yozish ko'nikmasini shakllantirish uchun esa quyidagi ko'rgazmali o'yindan foydalanishimiz mumkin bo'ladi:



Bu ko'rgazmada 0 sonidan boshlab 9 sonigacha bo'lgan sonlarning yozilishi ko'rsatiladi va ekranida o'quvchilarga qo'l yordamida har bir sonning yozilishi ko'rsatilib beriladi. Sonlarning qayerda boshlanishi va qayerda yakunlanishi chegaralab qo'yilgan bo'ladi. O'quvchilarga tushunarliroq bo'lishi uchun yordamchi strelkalar ham qo'yilgan. Sonning yozilishi boshlanadigan joyiga yashil tugmacha, tugash joyiga esa qizil tugmacha qo'yilgan.

Har bir ko'rgazmali qurollardan oqilona foydalanish o'qituvchining o'ziga va mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim sohasida axborot texnologiya vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga, ma'lumotlarni xotirada uzoq vaqt mobaynida saqlab qolishga, mavzularni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmasliklariga xizmat qiladi. Shuning uchun pedagoglarning kompyuter savodxonligini oshirishga, o'z ustida ishlashlariga imkoniyat yaratib berish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov. A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. - Toshkent. 1994. 56 bet.
2. Safarov.F.S. O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati. Samarqand. - 2004. 3 bet.
3. Jumayev. M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo. - 2013.
4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir. 2009.
5. G'afforova T., G'ulomova H va boshqalar. 1-sinfda savod darslari. – Toshkent: Sharq. 1998 .
6. Ahmedov. M., N. Abdurahmonova., M.Jumayev. 1-sinf matematika darsligi. – Toshkent: Turon-iqbol. 2018. O'n ikkinchi nashr.
7. N.Abdurahmonova., L.O'rinboyeva. 2-sinf matematika darsligi. – Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis. 2018. To'rtinchi nashr.
8. S.Burxonov., O'. Xudoyorov., Q.Norqulova., N.Ruzikulova., L.Goibova. 3-sinf matematika darsligi. – Toshkent: Sharq. 2019. To'rtinchi nashr.
9. N.U.Bikayeva., K.M.Girfanova. 4-sinf matematika darsligi. – Toshkent: O'qituvchi. 2020. Beshinchi nashr.
10. Jumayev. M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo. - 2013.
11. МАМАЖОНОВ А., ТЕСАБОВЕВ Д. Some thoughts about semantics of the complex sentences //Scientific journal of the Fergana State University. – 2018. – Т. 1. – №. 3. – С. 76-78.
12. Тешабоев Д. Р. ЭРГАШ ГАПЛИ ҚЎШМА ГАПЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АНТИТЕЗАНИНГ ЎРНИ //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 5. – №. 3.
13. Zokirova S. M. et al. Ta'limda axborot texnologiyalarining vujudga kelish tarixi //Молодой ученый. – 2020. – №. 18. – С. 586-587.
14. Zokirova S. M. Contrast analysis of syntactic layer units //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 8. – С. 250-255.

СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 1